

## О'QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMiy O'YINLARNING AHAMIYATI

*Boy chayeva Sharifa Saidkulovna*

*Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi  
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari  
kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida ta'limiy o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchilar bilim saviyasini oshirishda undan foydalanish yo'llari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'limiy, tafakkur, qobiliyat, masad, natija

**Abstract:** This article discusses the educational value of educational games in primary school classes, ways of using them to improve students' knowledge.

**Key words:** educational, thinking, ability, purpose, result

Yosh avlodning shakllanish jarayonini ularning aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasi va tafakkur qobiliyatini bilmasdan turib, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mushkul. Maktab ostonasiga qadam qo'ygan bola o'yinqaraoq bo'ladi. Unda hali sinf xonasida 45 minut darsda o'tirish, dars tinglash shakllanmagan bo'ladi. Ularni dars jarayoniga asta sekinlik bilan o'rgatib borishda bizga o'yinlardan foydalanish juda katta samara beradi.

O'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'yin dunyoni va o'zligini anglashda, qiziqishlarini qondirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatish va o'yin orqali bilim berish maqsadida yaratilgan.

Bolalarga o'yinni o'rgatishdan muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir, qiyin o'tkazilish shakllari va usullari bilan ta'limning boshqa turlaridan farq qiladi. O'yin - bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi. Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega.

«Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga, o'rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini anglab, mustaqil ravishda hukm va xulosalar chiqarishga, har bir o'quvchiga o'zligini namoyish etish va mulohazalarini erkin bayon etib, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratadi. Tezkorlik, sezgirlik,

topqirlik, qat'iylik, o'quv qiyinchiliklarini mustaqil yengish kabi fazilatlarni tarkib toptirish, ko'pincha, ta'limiy o'yinlar orqali amalga oshiriladi»

O'yinlar ikki xil ahamiyatga egadir: ta'limiy va tarbiyaviy.

Ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bolalarda o'qituvchi tomonidan bilim, ko'nikma, malakalar o'yin orqali o'zlashtiriladi va o'yinda bolalarga berilayotgan bilim, ko'nikma, malakalar orqali ularda axloqiy, hamkorlik, mustaqillik, o'ziga ishonch sifatleri shakllanadi. Bu esa muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda ijodkor, tajribali o'qituvchilar o'quv va bilish faoliyati takomillashtirishda ta'lim jarayonini didaktik o'yinlar bilan uyg'unlashtirib samarali natijalarga erishmoqdalar. Mashg'ulotlar jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar aslida mavzularni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va o'quv orqali samarali bilim berish maqsadida yuritilgan bo'lib, o'quvchi faolligini oshirishda o'ziga xos o'ringa egadir.

Misol uchun 3-4-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida **“Sondan so'zgach, sozdan tez aytishgacha”** nomli o'yinni olib qaraylik. Bu o'yin orqali o'quvchilar har bir sonlarni, sonlarni tagida turgan harflar va shu harflardan gaplar tuzishgacha bo'lgan jarayon bo'lib o'tadi.

Kim? nima	Qanday, qanaqa?	Nima qilmoq? Nima bo'lmoq?
Samad	Sarxush	Sayradi
Sanjar	Sabrli	Siyladi
Soat	Saramjon	Siladi
Sohil	Sokin	Surdi
Suv	Saxiy	Suzdi

*Saxiy Samad sokin suvda suzdi.*

O'quvchilar tuzgan gaplaridan tez aytish aytishadi. Bunda o'quvchilar o'tilgan darsni mustahkamlash bilan birgalikda o'zlari tez aytishni yoza olish va uni ayta olish qobiliyatlari rivojlanib boradi.

**“So'z tuzish“ o'yini.** O'yin savod o'rgatish davrida o'tkaziladi. Bu o'yinlarni bajarish o'quvchilarga tovushning so'z hosil qilishidagi ahamiyatini to'laroq tushunib olish imkonini beradi. O'quvchilar ushbu o'yinda ishtirok etar ekan, so'zlarning turli-tuman usullar bilan hosil bo'lishi katta qiziqish uyg'otadi. O'zlari hosil qilgan yangi so'zlardan bevosita zavq olishga muvaffaq bo'ladi. So'z tuzish o'yini savod o'rgatishning tarkib –tahrir (analitik –sintetik) tovush metodi asosida bajariladi. Ushbu metodning ikkinchi qismi tuzish, qurish, birlashtirish singari ma'nolarni bildiradi. So'z tuzish o'yini ham aynan so'zga hilma-hil tovushlarni, bo'g'inlarni qo'shish orqali hosil bo'ladi. Bu o'yinni bajarishda so'zga turli hil usullar bilan tovush qo'shib yangi so'z hosil qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki boshlang'ich sinf darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, mustahkam bilim hosil qilish, jamiyatning hamma sohalarida ijodiy faoliyat ko'rsata oladigan savodli va madaniyatli kishilarni tarbiyalab etishtirishdan iboratdir. Bularni amalga oshirishda turli ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi deb o'ylayman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. Toshkent – 2023
2. Mavlonova R. , Vohidova N. , Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5 [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz) 746 tarixi. „Fan-texnologiya“ T., 2010y.
3. U.A.Aydarova. O'qish savodxonligi: Umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-sinf uchun darslik –Toshkent 2023.Novda